


## QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2019 yil yanvar-avgust)


2019 yil yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, respublikada tashqi savdo aylanmasi 487,8 mln.AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,4 %ga ko'paydi. Shu jumladan, eksport hajmi 294,8 mln. AQSh dollarga va import hajmi 193,0 mln. AQSh dollariga yetdi. Tashqi savdo saldosi 101,8 mln. AQSh dollarini tashkil qildi.

### Qoraqalpog'iston Respublikasining tashqi savdo aylanmasi (mln.AQSh dollari)




Joriy yilning yanvar-avgust oylarida, respublika tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 38,9 %ni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 100,1 % ni tashkil qilgan, boshqa davlatlarning ulushi esa 61,1 % bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,9 %ga oshgan. Shuningdek, eksport hajmida MDH davlatlari 49,9 % ni, boshqa davlatlar 50,1 % ni va import hajmida MDH davlatlari 22,1 %ni, boshqa davlatlar 77,9 %ni tashkil qildi.

## 2019 yil yanvar-avgust oylarida respublika tashqi savdo aylanmasida MDH va boshqa davlatlarning ulushi (umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)



Shu bilan birga ta'kidlab o'tish kerakki, 2019 yilning avgust oyida eksport qilingan tovar va xizmatlar, iyul oyiga nisbatan 3,6 mln. AQSh dollarga kam eksport qilindi va 36,1 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Tovar va xizmatlar importi hajmi esa 15,0 mln. AQSh dollarini tashkil qilgan bo'lib, bu esa iyul oyiga nisbatan 7,8 mln. AQSh dollariga kamroqdir.

## 2019 yil yanvar-avgustda tovar va xizmatlarning oylik eksport-import ko'rsatkichlari dinamikasi (mln. AQSh dollari)



2019 yil yanvar-avgust oylarida respublika tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar ketma-ketligi quyidagicha ko`rinish olgan:

**Respublika tashqi savdo aylanmasida  
yuqori ulushga ega davlatlar**

(mln. AQSh dollari)

Davlat nomi	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasi	
				ulushi, %	o'sish sur'ati, %
Xitoy	128,7	74,7	54,0	26,4	111,8
Rossiya	124,3	99,2	25,2	25,5	97,6
Turkiya	57,8	40,5	17,4	11,8	72,4
Qozog'iston	52,0	40,9	11,0	10,7	111,4
Koreya Respublikasi	41,7	12,8	28,9	8,6	162,0
Latviya	15,8	12,9	2,9	3,2	75,8
Vietnam	10,1	0,0	10,1	2,1	2,1 b.
Buyuk Britaniya	7,4	0,0	7,4	1,5	5,2 b.
Ukraina	4,9	2,1	2,7	1,0	68,6
Eron	4,8	0,2	4,6	1,0	4,2 b.
Hindiston	3,2	0,2	3,0	0,7	9,5 b.
Turkmaniston	3,0	0,4	2,8	0,6	176,5
Litva	3,2	0,0	3,0	0,6	3,7 b.

Respublikamizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2019 yil yanvar-avgust oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 38,9 %ni tashkil etdi hamda tashqi savdo aylanmasining o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 100,1 %ni tashkil etdi. Boshqa xorijiy davlatlarning respublika tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2018 yilning yanvar-avgust oylarida 60,2 %ni tashkil qilgan bo'lsa, joriy yilning ushbu davrida esa tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 61,1 %ga etdi.

## Qoraqalpog'iston Respublikasining ayrim hamkor davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi dinamikasi

(mln.AQSh dollari)


Davlat nomi	2017 yil yanvar-avgust	2018 yil yanvar-avgust	2019 yil yanvar-avgust
<b>Xitoy</b>	<b>102,5</b>	<b>115,2</b>	<b>128,7</b>
eksport	81,3	83,7	74,7
Import	21,2	31,5	54,0
saldo	60,1	52,2	20,7
<b>Rossiya</b>	<b>85,9</b>	<b>127,4</b>	<b>124,3</b>
eksport	59,5	90,5	99,2
import	26,3	36,9	25,2
saldo	33,2	53,6	74,0
<b>Turkiya</b>	<b>90,4</b>	<b>79,8</b>	<b>57,8</b>
eksport	85,0	73,3	40,5
import	5,4	6,5	17,4
saldo	79,6	66,8	23,1
<b>Qozog'iston</b>	<b>29,8</b>	<b>46,7</b>	<b>52,0</b>
eksport	28,8	38,3	40,9
import	1,0	8,3	11,0
saldo	27,8	30,0	29,9
<b>Koreya Respublikasi</b>	<b>18,2</b>	<b>25,7</b>	<b>41,7</b>
eksport	0,5	3,9	12,8
import	17,7	21,8	28,9
saldo	-17,2	-17,9	-16,1
<b>Latviya</b>	<b>27,2</b>	<b>20,8</b>	<b>15,8</b>
eksport	26,8	18,0	12,9
import	0,3	2,9	2,9
saldo	26,5	15,1	10,0
<b>Vietnam</b>	<b>0,5</b>	<b>4,9</b>	<b>10,1</b>
eksport	0,5	1,0	0,0

Davlat nomi	2017 yil yanvar-avgust	2018 yil yanvar-avgust	2019 yil yanvar-avgust
import	0,0	3,9	10,1
saldo	0,5	-2,9	-10,1
<b>Buyuk Britaniya</b>	<b>0,6</b>	<b>1,4</b>	<b>7,4</b>
eksport	0,0	0,0	0,0
import	0,6	1,4	7,4
saldo	-0,6	-1,4	-7,4
<b>Ukraina</b>	<b>7,5</b>	<b>7,1</b>	<b>4,9</b>
eksport	2,8	3,2	2,1
import	4,7	3,9	2,7
saldo	-1,9	-0,7	-0,6
<b>Eron</b>	<b>2,7</b>	<b>1,1</b>	<b>4,8</b>
eksport	2,4	0,1	0,2
import	0,3	1,0	4,6
saldo	2,1	-0,9	-4,4
<b>Hindiston</b>	<b>0,5</b>	<b>0,3</b>	<b>3,2</b>
eksport	0,2	0,1	0,2
import	0,3	0,2	3,0
saldo	-0,1	-0,1	-2,8
<b>Turkmaniston</b>	<b>0,1</b>	<b>1,8</b>	<b>3,2</b>
eksport	0,1	0,2	0,4
import	0,0	1,6	2,8
saldo	0,1	-1,4	-2,4
<b>Litva</b>	<b>0,8</b>	<b>0,8</b>	<b>3,0</b>
eksport	0,0	0,0	0,0
import	0,8	0,8	3,0
saldo	-0,8	-0,8	-3,0


## EKSPORT

2019 yil yanvar-avgust oylarida eksport hajmi 294,8 mln.AQSh dollariga teng bo'ldi. Eksport tarkibida tovarlar 99,5 % ulushga ega, bular asosan kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (80,4 %), oziq-ovqat mahsulotlari (8,4 %) guruhlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Tovar va xizmatlar eksporti tarkibi (ming AQSh dollari)



### Tovar va xizmatlar eksporti ulushi, (%)




### Eksport tarkibi

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %
<b>Eksport</b>	294,8	90,3	100	147,1	107,4	100	147,7	77,9	100
<b>Paxta tolasi</b>	2,8	-	1,0	-	-	-	2,8	-	1,9
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari</b>	24,7	125,5	8,4	8,5	191,8	5,8	16,2	106,3	11,0
<b>Kimyo mahsulotlari va buyumlari</b>	237,0	81,6	80,4	132,3	102,4	90,0	104,7	65,0	70,9
<b>Energiya manbaalari va neft mahsulotlari</b>	2,4	36,2	0,8	0,8	89,6	0,6	1,6	27,6	1,1
<b>Mashina va asbob-uskunalar</b>	1,1	8,6 b.	0,3	0,1	13,9	-	1,0	84,2 b.	0,7
<b>Xizmatlar</b>	1,5	107,3	0,5	1,0	113,0	0,6	0,5	97,0	0,3
<b>Boshqalar</b>	25,3	3,1 b.	8,6	4,4	3,3 b.	3,0	20,9	3,0 b.	14,1

Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning oylar kesimidagi o'sish sur'atlari bo'yicha quyida keltirilgan ma'lumotlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, joriy yilning yanvar-avgust oylari davomida eng yuqori o'sish sur'ati may oyida kuzatilgan.



### Tovar va xizmatlar eksportining o'sish sur'atlari (o'tgan oyga nisbatan, %)




Shuningdek, tovar va xizmatlar eksporti o'sish sur'atlarining tahliliga asosan, 2019 yilning avgust oyida eksport qilingan tovar va xizmatlar iyul oyiga nisbatan 10,0 %ga kamaygan.

Xizmatlar eksporti hajmi 1,5 mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 0,5 %ini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 7,3 %ga o'sganligi kuzatildi.

Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi moliyaviy xizmatlar (42,9 %), safarlar (39,7 %) va transport xizmatlari (16,0 %) hissasiga to'g'ri keladi.


### Xizmatlar eksporti tarkibi, (%)






Tovar va xizmatlar eksporti dinamikasi tahliliga ko'ra, 2019 yilning avgust oyi mobaynida eksport qilingan tovarlar hajmi, iyul oyiga nisbatan 3,6 mln. AQSh dollariga kam eksport qilindi va 35,9 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar eksporti esa 0,2 mln. AQSh dollarga etgan.

**2019 yil yanvar-avgustda tovarlar va xizmatlar eksporti dinamikasi**  
(oylar kesimida, mln. AQSh dollari)




**Respublika eksportida asosiy hamkor davlatlarning ulushi**  
(yanvar-avgust)

2018 YIL



2019 YIL



Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Xitoy va Qozog'iston hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu esa umumiy eksport hajmining 72,8 %ini tashkil qiladi. Rossiya Federatsiyasi, Xitoy va Qozog'istonga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga nazar tashlasak, asosan kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlardan iborat ekanligini ko'rishimiz mumkin.

**Qoraqalpog'iston Respublikasining  
asosiy hamkor davlatlarga amalga oshirgan eksport hajmi**


Davlat nomi	Mln. AQSh doll.		Ulushi, %		O'rni	
	2018 yanvar- avgust	2019 yanvar- avgust	2018 yanvar- avgust	2019 yanvar- avgust	2018 yanvar- avgust	2019 yanvar- avgust
Rossiya	90,5	99,2	27,7	33,6	1	1
Xitoy	83,7	74,7	25,6	25,3	2	2
Qozog'iston	38,3	40,9	11,7	13,9	4	3
Turkiya	73,3	40,5	22,4	13,7	3	4
Latviya	18,0	12,9	5,5	4,4	5	5
Koreya Respublikasi	3,9	12,8	1,2	4,4	6	6
Ukraina	3,2	2,1	1,0	0,7	8	7
Qirg'iziston	3,2	2,1	1,0	0,7	7	8
Tojikiston	1,2	2,0	0,4	0,7	11	9
Iroq	1,8	1,2	0,5	0,4	10	10
Estoniya	2,7	1,2	0,8	0,4	9	11

**Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti**

2019 yilning yanvar-avgust oylarida jami 21 205,7 tonna meva-sabzavot mahsulotlari 8 422,2 ming AQSh dollariga eksport qilindi (o'sish sur'ati – 179,5 %). Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 2019 yilning yanvar-avgust oylarida 14 661,8 tonna sabzavotlar 4 675,6 ming AQSh dollariga eksport qilingan.

Shuningdek, 4 243,1 tonna meva va rezavorlar 2 718,7 ming AQSh dollariga eksport qilingan bo'lib, eksport hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3 028,4 tonnaga ko'paygan.

### Meva-sabzavot mahsulotlarining tarkibi




Shuni aytib o'tish joizki, mamlakatimizda eksport salohiyatini kengaytirish, yangi bozorlarni o'zlashtirish natijasida meva-sabzavot mahsulotlari, uzum, poliz, dukkakli ekinlar, shuningdek, quritilgan sabzavot va mevalarni eksport qilish hajmi oshib bormoqda. Jumladan, 2019 yilning yanvar-avgust oylarida uzum va qovun-tarvuz eksport hajmi 767,7 ming AQSh dollariga yetdi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,7 barobarga o'sgan).

### Respublikamizda yetishtirilgan meva va sabzavot mahsulotlarining asosiy bozorlari eksport geografiyasi


Davlat nomi	2018 yil yanvar-avgust			2019 yil yanvar-avgust		
	tonna	ming AQSh doll.	ulushi, %	tonna	ming AQSh doll.	ulushi, %
Qozog'iston	19 908,3	3 647,9	77,7	15 985,7	6 291,7	74,7
Rossiya	911,7	599,5	12,8	3 996,7	1 444,7	17,2
Bolgariya	-	-	-	66,7	310,6	3,7
Qirg'iziston	-	-	-	69,1	109,5	1,3
Ukraina	-	-	-	21,5	101,1	1,2
Turkiya	72,0	46,1	1,0	502,6	66,0	0,8
Ruminiya	-	-	-	252,0	36,3	0,4
Turkmaniston	10,0	7,3	0,2	275,9	32,5	0,4
Xitoy	-	-	-	25,5	24,7	0,3
Polsha	-	-	-	10,1	5,2	0,1

### 2019 yil yanvar-avgustida meva va sabzavot mahsulotlarining tarkibi (umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)

2018 yil




2019 yil




## IMPORT

Joriy yilning yanvar-avgust oylarida import hajmi 193,0 mln. AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 28,7 %ga o'sdi. Import tarkibida eng katta ulush mashina va asbob uskunalar (57,6 %), kimyo mahsulotlari va buyumlari (10,6 %), oziq-ovqat mahsulotlari (5,6 %) va xizmatlar (4,0 %) guruhlariga to'g'ri keldi.

### Tovar va xizmatlar importi tarkibi (ming AQSh dollari)



### Tovar va xizmatlar importi ulushi, (%)




### Import tarkibi

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQShdollar.	o'tgan yilga nisbatan, %	Umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQShdollar.	o'tgan yilga nisbatan, %	Umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQShdollar.	o'tgan yilga nisbatan, %	Umumiy hajmga nisbatan, %
<b>Import</b>	193,0	128,7	100	42,7	81,0	100	150,3	154,6	100
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari</b>	10,8	154,4	5,6	10,5	152,1	24,5	0,3	3,3 b.	0,2
<b>Kimyo mahsulotlari va buyumlari</b>	20,4	102,8	10,6	2,1	64,8	4,8	18,3	110,0	12,2
<b>Energiya manbaalari va neft mahsulotlari</b>	6,1	153,9	3,2	1,6	139,3	3,8	4,5	159,9	3,0
<b>Qora va rangli metallar</b>	1,8	37,7	0,9	0,5	19,3	1,1	1,3	58,3	0,9
<b>Mashina va asbob-uskunalar</b>	111,2	164,6	57,6	10,6	160,3	24,8	100,6	165,1	66,8
<b>Xizmatlar</b>	7,8	95,9	4,0	1,1	44,0	2,5	6,7	118,4	4,5
<b>Boshqalar</b>	35,0	90,3	18,1	16,4	54,8	38,5	18,6	2,1 b.	12,4

Import qilingan tovar va xizmatlarning oylar kesimidagi o'sish sur'atlari bo'yicha quyida keltirilgan ma'lumotlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, joriy yilning yanvar-avgust oylari davomida eng yuqori o'sish sur'atlari aprel oyida kuzatilgan.



### Tovarlar va xizmatlar importining o'sish sur'atlari dinamikasi (o'tgan oyga nisbatan, %)



Shuningdek, tovar va xizmatlar importi o'sish sur'atlarining tahliliga asosan, 2019 yilning avgust oyida import qilingan tovar va xizmatlar iyul oyiga nisbatan 21,1 %ga kamaygan.


### Qoraqalpog'iston Respublikasiga asosiy hamkor davlatlardan amalga oshirilgan import hajmi

Davlat nomi	Mln. AQSh doll.		Ulushi, %		O'рни	
	2018y. yanvar-avgust	2019y. yanvar-avgust	2018y. yanvar-avgust	2019y. yanvar-avgust	2018y. yanvar-avgust	2019y. yanvar-avgust
Xitoy	31,5	54,0	21,0	28,0	2	1
Koreya Respublikasi	21,8	28,9	14,5	15,0	3	2
Rossiya	36,9	25,2	24,6	13,0	1	3
Turkiya	6,5	17,4	4,3	9,0	5	4
Qozog'iston	8,3	11,0	5,6	5,7	4	5
Vietnam	3,9	10,1	2,6	5,2	6	6



Buyuk Britaniya	1,4	7,4	0,9	3,8	9	7
Eron	1,0	4,6	0,7	2,4	10	8
Hindiston	0,2	3,0	0,2	1,6	12	9
Litva	0,8	3,0	0,5	1,6	11	10
Latviya	2,9	2,9	1,9	1,5	7	11
Turkmaniston	1,6	2,8	1,1	1,4	8	12


### Xizmatlar importi tarkibi,(%)



Xizmatlar importi hajmi 7,8 mln. AQSh dollarini yoki jami import hajmining 4,0 %ini tashkil etdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 95,9 %ni tashkil etdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi boshqa ish yuzasidagi xizmatlar (82,8 %) hamda moliyaviy xizmatlar (8,1 %)dan iborat bo'ldi.

## 2019 yil yanvar-avgustda tovarlar va xizmatlar importi dinamikasi


(oylar kesimida, mln. AQSh dollari)




Shu bilan birga ta'kidlab o'tish kerakki, 2019 yilning o'tgan davri mobaynida respublikaga import qilinayotgan tovar va xizmatlar avgust oyida, iyul oyiga nisbatan 7,8 mln. AQSh dollarga kam import qilingan bo'lib, shundan tovarlar 6,7 mln. AQSh dollarga va xizmatlar 1,1 mln. AQSh dollarga kam import qilingan.

## Respublika importida asosiy hamkor davlatlarning ulushi (yanvar-avgust)

2018 yil



2019 yil



2019 yilning yanvar-avgust oylarida respublikaga 45 dan ortiq xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan. Shulardan 6 ta eng yirik bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasi, Koreya Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Qozog'iston va Vietnam hamkor davlatlaridan jami import hajmi 146,5 mln. AQSh dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 75,9 %ini tashkil qiladi.

Yuqorida qayd etib o'tilganidek, import tarkibida asosiy ulushni tashkil qilayotgan mashina va asbob-uskunalar, kimyo mahsulotlari va buyumlari hamda oziq-ovqat mahsulotlari asosan qaysi davlatlardan respublikamizga olib kirilayotganligini quyidagi sxemalardan ko'rish mumkin.

### Mashina va asbob-uskunalar import qilingan asosiy hamkor davlatlar

DAVLAT NOMI	XITOIY	TURKIYA	VIETNAM	BUYUK BRITANIYA	ROSSIYA
mln. AQSH doll.	50,3	10,7	9,9	6,7	6,5
O'tgan yilga nisbatan, %	185,3	3,3 b.	2,6 b.	11,5 b.	2,5 b.
Ulushi, %	45,3	9,6	8,9	6,0	5,8

### Kimyo mahsulotlari va buyumlari import qilingan asosiy hamkor davlatlar

DAVLAT NOMI	KOREYA RESPUBLIKASI	ROSSIYA	POLSHA	QATAR	XITOIY
mln. AQSH doll.	10,2	1,4	1,2	1,2	1,2
O'tgan yilga nisbatan, %	96,5	89,2	7,5 b.	-	173,6
Ulushi, %	50,1	6,9	6,1	6,0	5,7

**Oziq-ovqat mahsulotlari import qilingan asosiy hamkor davlatlar**

DAVLAT NOMI	QOZOG'ISTON	ROSSIYA	UKRAINA	TURKMANISTON
mln. AQSH doll.	7,4	2,2	0,5	0,4
O'tgan yilga nisbatan, %	160,3	8,4 b.	34,4	-
Ulushi, %	68,3	20,2	4,6	4,1

Yurtimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida mamlakatimizning eksport salohiyati oshib bormoqda.

Shuningdek, hukumatimiz tomonidan bir qator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o'rin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi  
Tel.:71-230-82-06**